



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi = digital object
identifier

eoconf.com - from 2024




INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Hamburg, Germany, 2026 Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian,
Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI RIVOJLANISHINING GEOGRAFIK JIHLTLARI

Payzullayev Marufjon Abduxoliovich

Andijon davlat pedagogika instituti assistenti

Nurmamatova Shahrizoda Xusanboy qizi

Andijon davlat pedagogika institute talabasi

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston qishloq joylariga geografik tavsif berilgan bo'lib, tabiiy-geografik sharoit, aholi joylashuvi va xo'jalik ixtisoslashuvi birligi batafsil tahlil etilgan. O'zbekiston hududidagi qishloq joylarini o'rganish natijasida qishloq aholi punklari, ulardagi aholi ulushi, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyoti ilmiy jixatdan taxlil etilgan. Qishloq joylari infratuzilmasini rivojlantirish uchun olib borilyotgan chora tadbirlar, hududiy siyosat va qishloq infratuzilmasini rejalashtirish atroflicha bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq joylar geografiyasi, hududiy diferensiallashuv, irrigatsiya, landshaft, qishloq joylashuvi, rayonlashtirish, resurs salohiyati, infratuzilma, demografik yuklama.

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF RURAL AREAS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Payzullaev Marufjon Abdukholikovich

Assistant, Andijan State Pedagogical Institute

Nurmamatova Shahrizoda Khusanboy qizi

Student of Andijan State Pedagogical Institute

Andijan, Uzbekistan

Annotation: This article provides a geographical description of rural areas of Uzbekistan, and a detailed analysis of the unity of natural and geographical conditions, population distribution and economic specialization. As a result of the study of rural areas in Uzbekistan, the rural population centers, the share of the population in them, agriculture and the economy were scientifically analyzed. Measures taken to develop the infrastructure of rural areas, regional policy and rural infrastructure planning are described in detail.

Keywords: rural geography, territorial differentiation, irrigation, landscape, rural location, zoning, resource potential, infrastructure, demographic burden.

KIRISH. O'zbekiston hududida qishloq joylari mamlakat demografik tuzilmasi, oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslari boshqaruvi va yerdan foydalanish tizimining tayanch bo'g'ini hisoblanadi. Qishloq hududlarini geografik tavsiflash masalasi faqat "qayerda nima yetishtiriladi" darajasida emas, balki tabiiy



sharoitlar, tarixiy irrigatsiya madaniyati, aholi joylashuvining zichligi va transport aloqadorligi birikmasida shakllanadigan murakkab makoniy tizim sifatida ko‘rilishi zarur. O‘zbekiston qishloq joylari geografiasining fundamental asoslari akademik Z.M.Akramov va professor A.S.Soliyevlar tomonidan yaratilgan. Qishloq aholi punktlarining joylashuvi va demografik xususiyatlari A.A.Qayumov va Sh.Qurbonovlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liqlik tomonlarini M.Nazarovning ilmiy ishlarida ko‘rish mumkin. Bugungi kunda qishloq joylarining ijtimoiy infratuzilmasi va ekologik holati N.Komilova va Yu.Ahmadaliyev kabi olimlar tomonidan zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganishgan. Markaziy Osiyoda qishloq landshaftlarining barqarorligi ko‘p jihatdan suv taqchilligi, iqlimning keskin kontinentalligi, tuproq sho‘rlanishi hamda tog‘ oldi va vodiy tekisliklaridagi geokologik cheklovlar bilan belgilanadi. Shu bois qishloq joylarini tavsiflashda klassik tabiiy-geografik komponentlar bilan birga, antropogen yuklama va infratuzilma “izlari” ham tahlil obyekti sifatida qaralishi kerak.

Mavjud adabiyotlarda O‘zbekiston qishloq hududlari ko‘pincha tabiiy zonalar yoki qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi bo‘yicha yoritilgan bo‘lib, hududiy farqlanishning institutsional va infratuzilmaviy omillari bilan integratsiyasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayrim tadqiqotlarda irrigatsiyaga bog‘liq agrolandshaftlar, suv-yer resurslari nisbatlari va demografik bosim masalalari alohida yo‘nalishlar sifatida ko‘riladi, biroq qishloq joylarini tipologik tavsiflash uchun yagona konseptual zanjir yetishmaydi. Ijtimoiy - iqtisodiy geografiyada esa qishloq hududlari ko‘pincha mehnat resurslari va ishlab chiqarish tarmoqlari joylashuvi bilan izohlanadi, tabiiy cheklovlar va landshaft tuzilishi bilan bog‘liqlik ba‘zan ikkilamchi bo‘lib qoladi. Xalqaro qishloq tadqiqotlarida “rurality” tushunchasi ko‘p o‘lchovli indekslar orqali o‘lchanadi va transport kirishuvchanligi, xizmatlar ta‘minoti hamda ekologik barqarorlik ko‘rsatkichlari birlashtiriladi. Mazkur yondashuvlar O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilganda, irrigatsiya tarmoqlarining hududiy konfiguratsiyasi va suv taqsimoti amaliyoti alohida o‘rin egallashi lozim.

Ushbu maqolaning maqsadi, O‘zbekiston qishloq joylarini geografik jihatdan integratsiyalashgan tavsiflash, ya‘ni tabiiy sharoitlar, resurslar, infratuzilma va demografik yuklama o‘rtasidagi bog‘lanishlarni konseptual model yordamida ochib berishdan iborat. Vazifalar quyidagilarni qamrab oladi: birinchidan, qishloq hududlarining tabiiy-geografik asosini zonal va azonal omillar kesimida izohlash; ikkinchidan, irrigatsiya va yer foydalanish tizimlarining qishloq landshaftlarini shakllantirishdagi rolini ko‘rsatish; uchinchidan, aholi joylashuvi va transport-joylashuv omillari orqali hududiy farqlanishni tipologik belgilash. Ilmiy yangilik sifatida qishloq joylarini tavsiflash uchun “tabiiy sharoit resurs infratuzilma demografik yuklama” zanjiri taklif etiladi hamda ushbu zanjirning O‘zbekiston qishloq makonida kuzatiladigan barqaror kombinatsiyalari tipologik mezonlar sifatida asoslanadi. Amaliy ahamiyati hududiy rejalashtirish, qishloq



infratuzilmasini ustuvorlashtirish va yer-suv resurslarini muvozanatli boshqarish uchun dalillarga tayangan tavsifiy baza yaratish bilan bog'liq.

NATIJAR VA MUHOKAMA. O'zbekiston Respublikasi agrar-industrial mamlakat hisoblanib, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qishloq joylari va qishloq xo'jaligi yetakchi o'rin tutadi. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining qariyb 50 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YIM) salmoqli qismi (taxminan 25-27%) aynan qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq joylarining geografik tavsifi nafaqat hududning tabiiy sharoitini, balki u yerdagi aholi turmush tarzi, iqtisodiy faoliyat va infratuzilmasini ham qamrab oladi.

Qishloq aholi punktlarining umumiy soni O'zbekistonda jami 10 987 ta qishloq aholi punktlari mavjud. (Ba'zi manbalarda bu ko'rsatkich yiriklashtirilgan yoki maydalangan punktlar hisobiga biroz farq qilishi mumkin 1-jadval). Ma'muriy birliklar (MFYlar) bo'yicha. Qishloqlarning boshqaruvi asosan Mahalla fuqarolar yig'inlari (MFY) orqali amalga oshiriladi. Respublikada jami 9 450 dan ortiq mahalla mavjud. Shundan qariyb 5 000 ga yaqini bevosita qishloq hududlarida joylashgan mahallalardir.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalari qishloq aholi punktlari soni

№	Hududlar	2010	2015	2020	2025
1	O'zbekiston Respublikasi	11081	11012	10996	10987
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1132	1128	1131	1126
3	Andijon viloyati	456	456	455	455
4	Buxoro viloyati	1471	1469	1467	1473
5	Jizzax viloyati	519	519	526	529
6	Qashqadaryo viloyati	1046	1045	1041	1041
7	Navoiy viloyati	594	577	577	582
8	Namangan viloyati	403	403	391	388
9	Samarqand viloyati	1865	1829	1849	1899
10	Surxondaryo viloyati	865	865	856	859
11	Sirdaryo viloyati	264	257	257	257
12	Toshkent viloyati	887	885	876	828
13	Farg'ona viloyati	1020	1020	1021	1000
14	Xorazm viloyati	559	559	549	550

Jadval: **O'zbekiston Respublikasi** milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Qishloq aholi punktlari soni bo'yicha quyidagi viloyatlar yetakchilik qiladi:

1. Samarqand viloyati – qishloq aholi punktlari eng ko'p bo'lgan hududlardan biri.
2. Farg'ona viloyati – aholi zichligi yuqori bo'lgani sababli qishloqlar bir-biriga juda yaqin joylashgan.



3. Qashqadaryo viloyati – hududi kengligi va qishloq xo‘jaligi rivojlangani sababli ko‘plab qishloq va ovullarga ega.

Qishloq aholi punktlarining turlari:

O‘zbekistonning geografik tuzilishiga qarab qishloqlar turlicha nomlanadi:

- Qishloq – asosan vodiya va vohalarda, dehqonchilik hududlarida.
- Ovul – asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlarining cho‘l va yaylov zonalarida.
- Qo‘rg‘on – asosan tog‘li yoki alohida ajralib turgan kichik aholi punktlari.
- Aholi soni: O‘zbekiston aholisining 50 foizga yaqini (taxminan 18,5 mln kishi) mana shu 10 mingdan ortiq qishloqlarda istiqomat qiladi.
- Urbanizatsiya: Oxirgi yillarda ko‘plab yirik qishloqlar "shahar tipidagi posyolka" (shaharcha) maqomini olmoqda, bu esa qishloqlar sonining statistik jihatdan o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Statistik ma‘lumotlar sifatida ochiq rasmiy manbalarda e‘lon qilingan demografik ko‘rsatkichlar, yer fondi va qishloq xo‘jaligi yerlarining tarkibi, irrigatsiya bilan qamrov, shuningdek transport tarmoqlarining umumiy zichligi haqidagi jamlanma ko‘rsatkichlar kontseptual tahlil darajasida qo‘llanildi. Metodologik tanlovning ilmiy asosi shundan iboratki, O‘zbekiston qishloq joylarida resurs taqchilligi va infratuzilma bog‘liqligi yuqori bo‘lgani sababli hududni faqat tabiiy zona yoki faqat tarmoq ixtisoslashuvi bilan tushuntirish yetarli emas; integratsiyalashgan yondashuv hududiy muammolarni kompleks ko‘rish imkonini beradi. Tipologik mezonlar ishlab chiqishda qishloq geografiyasida qo‘llanadigan ko‘p mezonli tavsiflash g‘oyalari ham hisobga olindi.

O‘zbekiston hududidagi qishloq aholisining ulushini quyidagi jadvalda yaqqol ko‘rish mumkin.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari shahar va qishloq aholisi ulushi

№	Viloyatlar	2010 (ming kishi)			2015 (ming kishi)			2020 (ming kishi)	
		jami	shahar	qishloq	jami	shahar	qishloq	jami	shahar
1	O‘zbekiston Respublikasi	28001,4	14425,9	13575,5	31022,5	15748	15274,5	33905,2	17144,3
2	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1632	820,3	811,7	1763,1	873	890,1	1898,3	930,5
3	Andijon viloyati	2549,1	1358,4	1190,7	2857,3	1500	1357,3	3127,7	1633,9
4	Buxoro viloyati	1612,5	622,4	990,1	1785,4	678,4	1107	1923,9	709,5
5	Jizzax viloyati	1116,8	526,8	590	1250,1	589,6	660,5	1382,1	648
6	Qashqadaryo viloyati	2616,1	1135,7	1480,4	2958,9	1274,5	1684,4	3280,4	1410,4
7	Navoiy viloyati	851,6	420,9	430,7	913,2	448,5	464,7	997,1	487,7
8	Namangan viloyati	2258,5	1458,8	799,7	2554,2	1618,8	935,4	2810,8	1815,1
9	Samarqand	3119	1160,4	1958,6	3514,8	1337	2177,8	3877,4	1438,3



	viloyati								
10	Surxondaryo viloyati	2075	767,9	1307,1	2358,3	845,2	1513,1	2629,1	954
11	Sirdaryo viloyati	714,4	294,7	419,7	777,1	336,6	440,5	846,3	361,3
12	Toshkent viloyati	2585,9	1293,2	1292,7	2758,3	1350,2	1408,1	2941,9	1446,7
13	Farg‘ona viloyati	3074,6	1802,5	1272,1	3444,9	1965,9	1479	3752	2117,7
14	Xorazm viloyati	1561,6	529,6	1032	1715,6	559	1156,6	1866,5	619,3
15	Toshkent shahri	2234,3	2234,3		2371,3	2371,3		2571,7	2571,7

Jadval: O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2026-2030 yillarda qishloq joylarining ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini jadal rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida qabul qilingan. Dasturning asosiy maqsadi – qishloqlarni zamonaviy, qulay va obod maskanlarga aylantirish, qishloq aholisiga shahar sharoitidagi qulayliklarni yaratib berish. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” dasturi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Har yili tegishli ro‘yxatlar tuzilib, qishloqlarning muayyan infratuzilmaviy va ijtimoiy ehtiyojlari aniqlanib, davlat byudjeti hisobidan mablag‘ ajratilmoqda. Dasturning bajarilishi bo‘yicha ishchi guruhlar tuzilib, qurilish va ta‘mirlash ishlari muntazam nazorat qilinib borilmoqda.

O‘zbekiston qishloq joylarining geografik tavsifi, avvalo, tabiiy zonallik va suv resurslari bilan belgilanuvchi yirik makoniy farqlanishni namoyon qiladi. Tekislik hududlarida iqlimning quruqligi, bug‘lanishning yuqoriligi va vegetatsiya davrining uzunligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini irrigatsiyaga kuchli bog‘lab qo‘yadi; tog‘ va tog‘ oldi hududlarida esa relyefning parchalanganligi, balandlik mintaqalanishi va suv manbalariga yaqin joylashganligi, qishloqlar joylashuvini hamda yer resurslaridan foydalanishning o‘ziga xos ko‘rinishini keltirib chiqaradi.

Tog‘ va tog‘ oldi qishloq hududlarida esa resurs salohiyati boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Bu yerda suv manbalari tabiiy oqimlar, buloqlar va kichik daryolar bilan bog‘liq bo‘lib, sug‘orish maydonlari kichik-kichik konturlar ko‘rinishida tarqalgan. Relyef tikligi va eroziya xavfi dehqonchilikning hududiy chegaralarini belgilaydi; ko‘p joylarda chorvachilik, bog‘dorchilik va aralash xo‘jalik tizimi ustun keladi. Qishloq manzilgohlari ko‘pincha transport yo‘llari va vodiy tublarida zichlashadi, yonbag‘irlar esa yaylov va o‘rmonzor resurslari bilan bog‘liq foydalanish makoni bo‘lib qoladi. Bunday hududlarda “masofa omili” yaqqol: tuman markaziga yoki bozorga yetib borish vaqti qishloq xo‘jaligi



mahsulotining bozorga yo'naltirilganligini, xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini hamda mehnat migratsiyasi ko'lamini farqlaydi.

XULOSA. Maqolada O'zbekiston qishloq joylari geografik tavsifining integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi va hududiy farqlanishning tayanch omillari tizimlashtirildi. O'zbekiston hududidagi qishloq joylariga tavsif berildi, qishloq aholi punktlari soni va ulushi o'rganildi. Natijalar irrigatsiyalashgan vodiy-voha hududlarida qishloq joylashuvi va xo'jalik ixtisoslashuvi suv infratuzilmasi bilan kuchli bog'liqligini, tog' va tog' oldi hududlarida esa relyef va kirishuvchanlik omillari mozaik yer foydalanish hamda aralash tirikchilik tizimlarini shakllantirishini ko'rsatdi. Taklif etilgan tipologik yondashuv qishloq infratuzilmasini rejalashtirish, yer-suv resurslarini muvozanatli boshqarish va hududiy rivojlanish ustuvorliklarini belgilash mumkin. O'zbekiston qishloq joylari mamlakatning ham iqtisodiy, ham ma'naviy poydevori hisoblanadi. Geografik jihatdan hududlarning ixtisoslashuvini to'g'ri taqsimlash, klaster tizimini rivojlantirish va tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish kelajakda qishloq hayotini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi, PF-22-sonli Farmoni. 16.02.2026. <http://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz>
3. Лаппо Г.М. География городов.- М., 1997.
4. Payzullayev M.A. ECONOMIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ANDIJAN AGGLOMERATION // Экономика и социум (электронное научно-практическое периодическое международное издание). – Саратов (Россия). Выпуск №12 (115)-2, 2023. ISSN: 2225-1545 (11.00.00; №11). -С. 291-293.
5. Payzullayev M.A. Urbanization processes of the Fergana Valley // Экономика и социум (электронное научно-практическое периодическое международное издание). – Саратов (Россия). Выпуск №6 (97)-1, 2022. ISSN: 2225-1545 (11.00.00; №11). -С.1176-1180.
6. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). Т.: "Fan va texnologiya", 2009, -212 бет.